



TA'LIM JARAYONINING RIVOJLANISHIDA BULUTLI TEKNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Navoiy viloyati Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Bo'ronova Gulchehra Abdimo'minovna

Kompyuter tarmoqlarini adminsratorlash ishlari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bulutli texnologiyaning eng asosiy funksiyasi ma'lumotlarni masofaviy qayta ishlashga muhtoj bo'lgan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish, Serverdagi joyining tejalishi malumotlarni saqlash bulut xizmati tomonidan amalga oshiriladi va imkoniyati cheklangan insonlarning ta'limdan foydalanish haqida batafsil bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Bulutli texnologiya, Internet xizmati, zamonaviy axborot texnologiyalari.*

Hozirgi kunda ta'lim sohasida Prezidentimiz tashabbusi bilan davlatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi Vatanimizning kelajagi bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish, [ularning mustaqil fikrlashga](#), bilm olishga, ajdodlarimizning boy ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlashga o'rgatish hamda ta'limning uzliksizligini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, farzandlarimizning mustaqil fikrlash, bilim olish ko'nikmalarini shakillantirish va rivojlantirish hamda ta'lim sohasi vakillarining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

2008 - yildan boshlab (Cloud technology) Bulutli texnologiyalar so'zi dunyo miqiyosida keng tarqaldi. Bir qarashda "Bulutli texnologiyalar" tushunarsiz ko'rinsada



bu model o'zida biror bir tizmdagi (serverlar, ilovalar, saqlash tizmlari va xizmatlar) dan tez, qulay, samarali foydalanish imkonini beradi. Ortiqcha urinishlarsiz, tez va aniq taqdim etiladi faqatgina provayder orqali tarmoqqa ulanganda.

Oddiy so'z bilan aytganda, bulutli texnologiya masofaviy serverlarda joylashgan kompyuter veb-ilovadan qulay foydalanishni nazarda tutadi. Foydalanuvchi interfeysi yoki dastur formati, korxonalar va kompaniyalar mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM), HR, buxgalteriya hisobi va boshqa tashkiliy ehtiyojlar kabi turli xil bulutli ilovalardan foydalanadilar.

Bulutli texnologiy nima?

Bulutli texnologiya –bu internet foydalanuvchilariga internet xizmati sifatida kompyuter resurslari taqdim etiladigan ma'lumotni qayta ishlash texnologiyasidir.

Bulutli texnologiyalar ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari kompyuter resurslari Internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida taqdim etiladi. Bu yerda “bulut” so‘zi barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmaning metaforasi sifatida ishlatiladi.

Bulutli (tarqalgan) hisoblash, shuningdek, bulutli (tarqalgan) ma'lumotlarni qayta ishlash atamasi ishlatiladi, bu ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi bo'lib, unda kompyuter resurslari va quvvati foydalanuvchiga Internet xizmati sifatida taqdim etiladi. Foydalanuvchi o'z ma'lumotlariga kirish huquqiga ega, lekin u ishlayotgan infratuzilma, operatsion tizim va haqiqiy dasturiy ta'minotni boshqara olmaydi va ularga ahamiyat bermasligi kerak.

Siz ma'lumotlaringizni saqlashingiz uchun qimmatbaho kompyuter, fleshkalar, aksessuarlar sotib olishingiz shart emas, chunki hammasi bulutda saqlanadi.

Bulutli ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni quyidagilardan tashkil topadi:

1. Xizmat sifatida infratuzilma
2. Xizmat sifatida platform
3. Dastur sifatida, xizmat sifatida



4. Ma'lumotlar xizmat sifatida
5. Xizmat sifatida ish joyi

Bulutning afzalliklari

1. Virtual xizmatlar sizni flesh-disklar bilan ishlash va qattiq disk maydoni cheklovlari muammosini hal qilish zaruratidan ozod qiladi, foydalanuvchiga bir necha gigabayt bepul beriladi va agar kerak bo'lsa, ularni sotib olish mumkin.

2. Litsenziyalangan dasturiy ta'minotni sotib olishning hojati yo'q.

3. Xizmat bir vaqtning o'zida bir nechta xodim yoki ijodiy guruhga bitta fayl bilan ishlash imkonini beradi.

4. Foydalanuvchi ma'lumotni istalgan formatda saqlashi va istalgan qurilmadan erkin foydalanishi mumkin - ma'lum bir kompyuter xotirasiga bog'lanish yo'q.

5. Bunday virtual xotiradan foydalanish qattiq diskda bo'sh joyi bo'shatadi, kompyuteringiz tezligini oshiradi.

6. Yechimlar kompyuterlar va tashqi qurilmalarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan ma'murlar xodimlarga muhtojlik bo'lmaydi. Virtual ofislar ishni sezilarli darajada soddalashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va murakkab texnik muammolarni avtomatik rejimda hal qilish imkonini beradi.

7. Ular turli platformalarda ishlatilishi mumkin va agar kerak bo'lsa, o'lchaydi. Elastik va egiluvchan tuzilish uni bajarishni osonlashtiradi.

Bulutli texnologiyalarning eng afzallik tomoni shundaki, foydalanuvchiga qurilmaga dasturlarni o'rnatmasdan turib ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi, chunki u yerda barcha qo'llab quvatlovchilar server tomonidan a'malga oshiriladi. Bu xizmatlar sizning so'rovingizga bog'liq holda pullik va bepul bo'ladi. Bulutli texnologiyalarning yana bir foydali jihati shundaki, korporativ va moliyaviy boshqaruv uchun yangidan yangi va kutilmagan imkoniyatlarni yaratadi.



Ma'lumolarni bulutli uslubda saqlash on-line texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlar xafsizligini ta'minlash hamda operatsion harajatlarni keskin kamayishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birgalikda bulutli texnologiyalarning biroz kamchiliklari ham majud:

Bulutli texnologiyalarda Internet mavjud bo'lmaganda kirish imkoni bo'lmaydi, shu bilan birgalikda Internet tez va sifatli bo'lishi lozim

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bulutli texnologiyaning eng asosiy funksiyasi ma'lumotlarni masofaviy qayta ishlashga muhtoj bo'lgan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishdir.

Serverdagi joyining tejalishi malumotlarni saqlash bulut xizmati tomonidan amalga oshiriladi va imkoniyati cheklangan insonlarning ta'limdan foydalanish imkoniyati hamda yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqiladigan bulut texnologiyalarini o'qitish jarayonida tadbqiq qilish ta'lim tizimidagi istiqbolli innovatsiyalardan biri hisoblanishini xulosa qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Delov to'liqin erkinovich.bulitli texnologiyalar o'quvqo'llanma. Toshkent - 2020
2. Aripov a.n., mirzaxidov x.m., shermatov sh.x., saidxodjayev s.r., hasanov p.f.,amirov d.m., bakirov o.a. axborot – kommunikatsiya texnologiyalari. Izohli lug'at. Toshkent-2004.
3. Nazarov u.a.,zaynalov n.r.,karimov a. «axborot tizimlari» fanidan ma'ruzalar matni. Elektron variant. – samarqand: samdaq nashri, 2013 yil.
4. Zaynidinov h.n., zaynalov n.r., safarov b.sh. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Elektron variant.– 2013.